



XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 5 - sentabr

VI-69-155-7-93-K/22

Bulung'ur tuman hokimligi

Bulung'ur tumanida olib borilayotgan qurilish va ta'mirlash ishlari bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar hamda qurilish sohasida yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini ta'minlash to'g'risida

Bulung'ur tumanida olib borilayotgan qurilish va ta'mirlash ishlari bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar hamda qurilish sohasida yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini ta'minlash to'g'risida tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari A.Elmurotovning hisobotini inobatga olib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashining oltmish to'qqizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Bulung'ur tumanida olib borilayotgan qurilish va ta'mirlash ishlari bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar hamda qurilish sohasida yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini ta'minlash to'g'risida tuman hokimining o'rinbosari A.Elmurotovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o'rinbosari (A.Elmurotov) hamda sohaga aloqador barcha tashkilot va korxonalariga:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi "2022-2026-yillarda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-172-sonli qaroriga asosan:

"Obod qishloq" dasturida belgilangan tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish;

dastur doirasida bajariladigan qurilish, ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari uchun ajratilgan mablag'lardan maqsadli hamda samarali foydalanish;

dasturga kiritilgan mahallalardagi mavjud uy-joylar, bino va inshootlar, infratuzilma obyektlari, ichimlik suv tizimlari, elektr, gaz, yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiyalarining texnik holatini yaxshilash;

tuman markazida joylashgan Fozil Yo'ldosh o'g'li xiyobonini qayta ta'mirlash ishlarini hamda Sohibkor mahallasida joylashgan Fozil Yo'ldosh o'g'li muzeyini rekonstruksiya qilish, muzey hududini obodonlashtirish, hududda joylashgan madaniyat uyini joriy ta'mirlash ishlarini belgilangan muddatda yakunlash ;

tuman markaziy ko'chalarida bunyod etilgan piyodalar yo'laklarining qurilishida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni 10 kun muddatda to'liq bartaraf etish;

tumanda 2022-yilda doimiy yangi ish o'rinlarini tashkil etish bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari ijrosini to'liq ta'minlash;

tumandagi yirik qurilish tashkilotlaridagi bo'sh ish o'rinlariga ishsiz fuqarolarni jalb qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil qilish vazifalari topshirilsin.

3. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Jabborov) va "Bulung'ur hayoti" gazetasi (G'.O'rolov)lar tuman hokimining o'rinbosari A.Elmurotov bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi "2022-2026-yillarda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-172-sonli qaroriga asosan tumanda amalga oshirilayotgan ishlarni hamda qurilish sohasida mavjud ish o'rinlarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish tavsiya qilinsin.

4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Bulung'ur tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (X.Bozorov) hamda ijrosini ta'minlash tuman hokimining o'rinbosari (A.Elmurotov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi



S.Astonov